



SALMONELLYOZNI DAVOLASH VA OLDINI OLISH USULLARI

Raxmatullayeva Zebiniso

Alfraganus Universiteti davolash ishi

3-kurs talabasi

Kucharova I.SH

Alfraganus Universiteti

Tibbiyot fakulteti Tibbiyot kafedrasi

o'qituvchisi

Annotatsiya; Ushbu maqolada salmonellyoz kasalligining etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinik belgilari, tashxislash usullari, davolash va profilaktika choralari yoritilgan. Salmonellyoz – oziq-ovqat orqali yuqadigan, ichak infeksiyalari guruhiga kiruvchi, asosan *Salmonella* turkumiga mansub bakteriyalar sababli yuzaga keladigan kasallikdir. Maqolada zamonaviy davo usullari, antibiotik terapiyasi, rehidratasion va simptomatik yondashuvlar hamda profilaktik choralar haqida so'z yuritiladi. Tadqiqotning maqsadi – salmonellyozning klinik oqibatlarini kamaytirish, davolash samaradorligini oshirish va kasallik tarqalishini oldini olishdir.

Kalit so'zlar: salmonellyoz, davolash, profilaktika, ichak infeksiyasi, antibiotik.

Salmonellyoz – ichak infeksiyalari orasida eng ko'p uchraydigan va jamoat salomatligi uchun xavfli kasalliklardan biridir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har yili millionlab odamlar ushbu infeksiya bilan kasallanadi. Odatda u oziq-ovqat (go'sht, tuxum, sut mahsulotlari) yoki suv orqali yuqadi. Kasallikning og'ir shakllari bolalar, homilador ayollar va immuniteti sustlashgan odamlarda ko'proq uchraydi. Salmonellyozni *Salmonella enterica* va uning ko'plab serotiplari qo'zg'atadi. Bakteriyalar gram-manfiy tayoqchalar bo'lib, tashqi muhitga chidamli, suv va oziq-ovqat mahsulotlarida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Asosiy manbalar: kasallangan odam va hayvonlar, ifloslangan go'sht, tuxum, sut mahsulotlari. Yuqish yo'llari: alimentary (oziq-ovqat orqali), kontakt-maishiy va suv orqali. Epidemiologik omillar: sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilinmasligi, oziq-ovqat mahsulotlarini noto'g'ri saqlash. Salmonellalar organizmga tushgach, ingichka ichakka o'tib, u yerda ko'payadi. Natijada: Ichak epiteliyiga zarar yetadi. Intoksikatsiya rivojlanadi. Suv-elektrolit muvozanati buziladi. Og'ir hollarda bakteriyalar qonga o'tib, sepsis rivojlanishi mumkin. Salmonellyozning inkubatsion davri 6–48 soat. Kasallik quyidagi belgilar bilan kechadi: Qayt qilish, ko'ngil aynishi; Qorin og'riqlari, meteorizm; Diareya (suyuqligi ko'p, ba'zan yashil rangli, hidli); Tana haroratining ko'tarilishi (38–39°C gacha); Bosh og'rig'i, holsizlik. Og'ir hollarda suvsizlanish, hushdan ketish, kollaps kuzatiladi. **Tashxislash;** Salmonellyozni tashxislashda klinik belgilardan tashqari laborator tahlillar muhim ahamiyatga ega: Bakteriologik usul – najas, qusindi yoki qon namunalardan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Salmonella ajratib olish. Serologik usullar – agglutinatsiya reaksiyasi, ELISA. Umumiy qon tahlili – leykotsitoz, ECHT tezlashishi mumkin. Davolash usullari ;1. Umumiy tamoyillar Bemorni izolyatsiya qilish. To‘liq parhez (yengil hazm bo‘ladigan ovqatlar, ko‘p suyuqlik). Rehidratasion terapiya. 2. Rehidratasion terapiya; yengil shakllarda – Regidron, Oralit kabi eritmalar. Og‘ir shakllarda – vena ichiga fiziologik eritma, Ringer eritmasi, glyukoza eritmaları yuboriladi. 3. Antibiotikoterapiya; Antibiotik faqat og‘ir shakllarda qo‘llaniladi: Ftorxinolonlar (Ciprofloxacin, Ofloxacin); III avlod sefalosporinlar (Ceftriaxone, Cefotaxime); Azitromitsin.4. Simptomatik davolash; antipiretiklar (parasetamol, ibuprofen); Enterosorbentlar (Smecta, aktiv ko‘mir); Probiyotiklar (Linex, Bifidumbacterin) – ichak mikroflorasini tiklash uchun. **Profilaktika;** 1. Shaxsiy profilaktika Qo‘llarni yuvish; Oziq-ovqatni to‘g‘ri saqlash; Tuxum va go‘shtni to‘liq pishirish; Sifatli ichimlik suvini iste‘mol qilish.2. Jamoaviy profilaktika. Sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish; Oziq-ovqat ishlab chiqarishda nazoratni kuchaytirish; Aholini gigiyena qoidalariga o‘rgatish; Epidemiologik kuzatuv va monitoringni olib borish.

Xulosa;Salmonellyoz – keng tarqalgan va jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan ichak infeksiyasidir. Uni davolashda asosiy e‘tibor rehidratasion terapiya, simptomatik davo va og‘ir hollarda antibiotikoterapiyaga qaratiladi. Kasallikning oldini olish esa shaxsiy va jamoaviy gigiyena qoidalariga qat‘iy amal qilish orqali amalga oshiriladi. Aholi o‘rtasida sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish va profilaktik choralarni kuchaytirish bilan salmonellyoz tarqalishini sezilarli kamaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.World Health Organization. *Salmonella (non-typhoidal)*. Geneva: WHO, 2023.
- 2.Ryan KJ, Ray CG. *Medical Microbiology*
3. Ichak infeksiyalari bo‘yicha Respublika klinik protokoli. Toshkent, 2021

